INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF BIRUNI
ISSN (E) 2181-2993
Volume 5, Issue 2. (2026)

O‘ZBEK VA ISPAN ARABIZMLARINING SEMANTIK DIVERGENSIYASI: DENOTATIV, AKSIOLOGIK VA PRAGMATIK FARQLANISH

Utkir Burxonov
Samarqand davlat chet tillar instituti
Ispan va italyan filologiyasi kafedrasi
Dotsent, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: utkirburkhon24@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0003-3611-212X

ANNOTATSIYA

Maqolada o‘zbek va ispan tillaridagi dalil–adalid, miskin–mezquino hamda harakat–alharaca juftliklarining zamonaviy ma’no munosabatlari tarixiy attestatsiyalar bilan chog‘ishtiriladi. Izohli lug‘atlar, XIII–XV asrlarga oid kastil hujjatlari va tarixiy semantikaga bag‘ishlangan tadqiqotlar asosida denotativ, aksiologik va pragmatik farqlanishning dalillanish chegaralari aniqlanadi. Tahlil umumiy etimon ma’no ekvivalentligini kafolatlamasligini, ayni paytda hozirgi tafovutning o‘zi tarixiy o‘zgarish sanasini isbotlamasligini ko‘rsatadi. Natijalardan ikki tilli lug‘atchilikda, filologik sharhda va kontekstga mos tarjima muqobillarini tanlashda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, ispan tili, arabizmlar, etimon, semantik divergensiya, denotat, aksiologik ma’no, pragmatika, tarixiy attestatsiya.*

СЕМАНТИЧЕСКАЯ ДИВЕРГЕНЦИЯ АРАБИЗМОВ В УЗБЕКСКОМ И ИСПАНСКОМ ЯЗЫКАХ: ДЕНОТАТИВНЫЕ, ОЦЕНОЧНЫЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ РАЗЛИЧИЯ

Уткир Бурхонов
Самаркандский государственный институт иностранных языков
Кафедра испанской и итальянской филологии
Доцент, доктор философии (PhD) по филологическим наукам
E-mail: utkirburkhon24@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0003-3611-212X

АННОТАЦИЯ

В статье сопоставляются современные значения пар dalil–adalid, miskin–mezquino и harakat–alharaca в узбекском и испанском языках с привлечением исторических свидетельств. На материале толковых словарей, кастильских

документов XIII–XV веков и исследований по исторической семантике устанавливаются характер и пределы доказательности денотативных, оценочных и прагматических различий. Показано, что общий этимон не обеспечивает лексической эквивалентности, а современное расхождение само по себе не датирует семантическое изменение. Результаты применимы в двуязычной лексикографии, филологическом комментировании и контекстно обусловленном переводе.

Ключевые слова: *узбекский язык, испанский язык, арабизмы, этимон, семантическая дивергенция, денотат, оценочное значение, прагматика, историческая фиксация.*

SEMANTIC DIVERGENCE OF ARABISMS IN UZBEK AND SPANISH: DENOTATIONAL, EVALUATIVE AND PRAGMATIC DIFFERENTIATION

Utkir Burkhonov
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Department of Spanish and Italian Philology
Associate Professor, PhD in Philology
E-mail: utkirburkhon24@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0003-3611-212X

ABSTRACT

This study compares the present-day meanings of the Uzbek–Spanish pairs dalil–adalid, miskin–mezquino and harakat–alharaca against available historical attestations. Explanatory dictionaries, thirteenth- to fifteenth-century Castilian records and historical-semantic scholarship are used to distinguish denotational, evaluative and pragmatic differences and the evidential limits of each claim. The findings show that a shared etymon does not ensure lexical equivalence, while a present-day contrast cannot, by itself, date a semantic shift. The proposed distinctions are useful for bilingual lexicography, philological commentary and context-sensitive translation.

Keywords*: Uzbek, Spanish, Arabisms, etymon, semantic divergence, denotation, evaluative meaning, pragmatics, historical attestation.*

KIRISH

So‘zlarning tarixi ba’zan ularning bugungi ma’nosidan ko‘ra kengroq hikoya qiladi. Arabcha bir manbaga borib taqalgan ikki birlik turli tillarga singganidan keyin bir-biriga aynan teng kelmasligi mumkin. Ayrim paytda ular mutlaqo boshqa

obyektni ataydi, boshqa vaziyatda esa faqat hissiy rang yoki nutqiy maqsad o‘zgaradi. Shu sababli o‘zbekcha *dalil*ni ispancha *adalid* bilan, *miskin*ni *mezquino* bilan yoki *harakat*ni *alharaca* bilan bir qarashda muqobil deb bilish nazariy jihatdan ham, tarjimada ham xavflidir.

Masalaning tarixiy sababi ham bir yoqlama emas. Iberoroman hududidagi arabizmlar al-Andalusdagi uzoq til aloqalari va keyingi roman tillari taraqqiyoti bilan bog‘liq. O‘zbek tilidagi arabcha qatlam esa Markaziy Osiyo yozma madaniyati, diniy ta’lim va ko‘pincha fors vositachiligi bilan shakllangan. Arabcha leksik birlikning ikki qabul qiluvchi tilda boshqacha yashashi kutiladigan hodisa, ammo bu tafovutning qaysi qismi manba tilida, qaysi qismi vositachi tizimda va qaysi qismi yangi nutq muhitida yuzaga kelganini dalilsiz belgilash mumkin emas.[1]

Ushbu maqolaning vazifasi uch juftlikni bir xil tartibda - zamonaviy sema, tarixiy yozma manbalar, dalil maqomi va tarjima kesimida - qayta ko‘rib chiqishdir. Tadqiqot savoli shunday qo‘yiladi: umumiy arabcha etimologik birliklar qaysi semantik qatlamda uzoqlashgan va buni tarixiy manbalar qay darajada tasdiqlaydi?[2]

Material, metod va dalillash mezonlari

Material maqsadli tanlangan uch juftlikdan iborat. *Dalil–adalid* - nomlanayotgan narsa va shaxs o‘rtasidagi referensial tafovut; *miskin–mezquino* - ehtiyoj holatidan salbiy axloqiy bahoga siljigan semantik ustuvorlik; *harakat–alharaca* - umumiy faoliyat nomidan bo‘rttirilgan hissiy namoyishga ixtisoslashgan pragmatik yo‘nalish uchun qiyos mezoni sifatida tanlandi.

Sinxron qatlam uchun o‘zbekcha so‘zlar O‘TIL (O‘zbek tilining izohli lug‘ati) va Izoh.uzdagi lug‘atlardan va D.Baxronovaning “Diccionario de español y uzbeko” nomli lug‘atidan, ispancha so‘zlar esa RAE–ASALE tomonidan 2026-yilda nashr etilgan ITL (Diccionario de la lengua española) orqali tekshirildi. Lug‘atdagi adabiy namunalar lug‘at tuzuvchilari keltirgan attestatsiyalar sifatida, tarixiy ispancha misollar esa ochiq manbalardagi raqamli matn yoki tarixiy lug‘at qaydlari sifatida ajratildi.[3]

Komponent tahlili ma’nodagi to‘rtta belgini ajratadi: R - referent (shaxs, hodisa yoki faoliyat), A - aksiologik yo‘nalish (neytral, ijobiy, salbiy), P - pragmatik vazifa (xabar, baholash, ta’sir), H - tarixiy dalil turi. H bo‘yicha T1 sanasi ma’lum asl matn

1. Burkhonov U. F. Similitudes y diferencias en los arabismos de las lenguas española y uzbeka. Tesis doctoral. Universidad de Castilla-La Mancha, 2024. https://ruidera.uclm.es/bitstreams/1d79c49a-ef29-4bce-a922-68d89c01ee2e/download
2. Burxonov U. F. Ispan tilidagi arabizmlarning semantik va etimologik tadqiqi // Zamonaviy tilshunoslik va lingvodidaktikaning kommunikativ aspektlari. Samarqand, 2019. B. 61–62.
3. RAE–ASALE. Diccionario de la lengua española. 24.ª ed., 2026, tegishli «adalid», «mezquino», «alharaca» maqolalari: https://dle.rae.es/adalid ; https://dle.rae.es/mezquino ; https://dle.rae.es/alharaca (murojaat: 04.11.2026). O‘TIL: O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 6 jild. Toshkent, 2022.

yoki hujjatni; T2 tarixiy lug‘at va boshqa olimning filologik talqinini; S zamonaviy lug‘aviy izohni; F esa hozircha tekshirilmagan farazni bildiradi. Birinchi yozma manba so‘zning o‘sha davrda mavjudligini ko‘rsatadi, uning ilk paydo bo‘lish vaqtini emas.

Bundan tashqari, “bir etimologik birlik” atamasi manba tildagi shakl va unga yaqin yasalmalarning aynan bir xil tarixiy zanjirga ega ekanini avtomatik anglatmaydi. Biz avvalo etimologik yaqinlikning lug‘at bilan tasdiqlangan darajasini, undan keyin hozirgi ekvivalentlikni va nihoyat tarixiy izohning ishonchliligini baholaymiz. Dastlabki ikki ko‘rsatkich mustaqil: ma’no uyg‘unligi past bo‘lgani bilan, shaklning genealogik yaqinligi yo‘qolmaydi.

Dalil–adalid: dalolatdan yetakchilikka oid turli referentlar.

O‘zbekcha *dalil*ning bosh ma’nosi - hukm yoki fikrning ishonchliligini tasdiqlovchi asos. Izoh.uz maqolasida A. Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidan olingan “birorta dalil kerak” parchasi ham ayni mazmunni yoritadi. Huquqiy nutqda esa *dalil* voqea yoki jinoyatni isbotlash uchun qo‘llanadigan fakt yoxud ashyoni anglatadi. Mazkur ikki qo‘llanishda ham obyekt - ma’lumot, asos, isbot; yetakchi shaxs emas.[4]

Ispancha *adalid*ning hozirgi ITLdagi birinchi ma’nosi guruh, g‘oya yoki harakat yo‘lboshchisi yoxud faol himoyachisidir. Lug‘atning o‘zida “un adalid de la democracia” namunasi beriladi. Ikkinchi, tarixiy ma’no esa harbiy sardorga tegishli. So‘zning etimologik zanjiri andalus arabchasidagi *addalíl* orqali arabcha *dalīl* bilan bog‘langan. Shunga qaramay, zamonaviy ispancha birlikning denotativ markazi shaxsga qaratilgan.[5]

Tarixiy hujjat bu farqni muhim jihatdan aniqlashtiradi. Alfonso Xning “Las Siete Partidas” asari ikkinchi qismida, XXII bob, I qonunida *adalid*ga yo‘lni bilish, safarni xavfli hududlardan asrash va qo‘shinni boshlab borish vazifalari yuklatiladi. XIII asr normativ matni hozirgi “g‘oya himoyachisi” ma’nosini emas, harbiy yo‘lko‘rsatuvchi tarixiy harbiy mavqeni tasdiqlaydi. Biz undan ispancha so‘zning qadimiy shaxs referentini aniq dalillash uchun foydalanamiz.[6]

Universitat de Barcelona tuzgan DICCA-XVda 1418-yilgi kantselyariya yozuvida *adalil*, 1499-yilgi yilnoma materialida esa *adalides* qayd etilgan. Ikkala

4. Izoh.uz, «dalil» maqolasi: https://izoh.uz/word/dalil . Undagi A. Qodiriyga nisbat berilgan misol — elektron lug‘at tanlagan adabiy iqtibos, mustaqil korpus topilmasi emas.
5. RAE–ASALE, ITL (24-nashr), «adalid»: https://dle.rae.es/adalid (murojaat: 04.11.2026). Ispancha birikma aynan shu lug‘atning tahririy namunasidir.
6. Alfonso X, Las Siete Partidas, Segunda Partida, título XXII, ley I. BOE tarixiy nashrlari katalogi: https://www.boe.es/biblioteca_juridica/publicacion.php?id=PUB-LH-2011-60 ; matnning mazkur qonuniga sharhli ko‘chirma: https://www.acami.es/wp-content/uploads/2024/01/Anexo-al-ensayo-Analisis-de-las-ordenanzas-de-la-II-Partida-web.pdf .

joyda ham gap hududni kuzatish yoki qo‘shinga yo‘l ochadigan kishilar haqida boradi. Bu qo‘shimcha *dalil* ko‘p asrlik vaqt oralig‘ida harbiy referentning hujjatlashtirilganligini ko‘rsatadi. Biroq o‘zbekcha *dalil* ma’nosining qachon va nima sababdan “isbot” yo‘nalishida ustuvorlashganini mustaqil isbotlab bermaydi.[7]

Natija denotativ ajralish sifatida belgilanadi: *dalil* - [asos, fakt, isbot], *adalid* - [yetakchi, himoyachi, tarixiy qo‘mondon]. O‘zbekcha “ta’limni rivojlantirishga dalil” va ispancha “un adalid de la educación” bir-biriga shaklan yaqin, ammo turli munosabatni bildiradi. Ikkinchi ibora “ta’limning jonkuyar himoyachisi” kabi tarjima qilinadi. Bu tarjima izohiy misoldir.

Miskin–mezquino: muhtojlikdan axloqiy hukmgacha.

O‘zbek tilidagi *miskin* ko‘pincha nochorlikdan og‘ir ahvolga tushgan odamni yoki mungli, tushkun holatni ifodalaydi. Buni oddiy “kambag‘al” bilan birlashtirish semantik noziklikni yo‘qotadi: moddiy muhtojlik omili mavjud bo‘lishi mumkin, biroq umumiy kayfiyatda dard, ojizlik va achinish ham qatnashadi. O‘zbek sinonimlari haqidagi izohli manbalarda *miskin*ning kitobiy xususiyati, nochorlikning ta’sirchan tasviri sifatida faolligi alohida ko‘rsatilgan.[8]

Ispancha *mezquino*da esa so‘zning faol lug‘aviy profilini salbiy baho boshqaradi. ITL birinchi navbatda xasislik va olijanoblikdan yiroqlikni, undan so‘ng boshqa chekka sifat belgilari hamda eski «”echora, baxtsiz” ma’nosini qayd etadi. Bu holat ikki til bir xil ma’no doirasidan butunlay uzilganini bildirmaydi. Aksincha, etimologik muhtojlikning izi ispan leksikografiyasida saqlangan, ammo nutqda oldingi o‘ringa boshqa - baholovchi - ma’no chiqqan.[9]

Tarixiy izohda A. Martínez Ezquerroning XVI asr sahna matnlari haqidagi maqolasi muhim. U “Códice de Autos Viejos”dagi *mezquino* qo‘llanishlarini tarixiy lug‘atlar bilan qiyoslab, muhtojlik va omadsizlik ma’nolarini, shuningdek, XVI asrga kelib ochiq ko‘ringan salbiy-axloqiy bahoni alohida tushuntiradi. Muallif keltirgan “O mezquina sin ventura!” parchasi kontekstda bevosita haqoratga yaqinlashadi.[10]

Yuqoridagi misolda salbiylikning muhim ikki darajasi mavjud. Birinchisi - lug‘aviy belgi: *mezquino* “xasis yoki pastkash” degan tavsifni ifodalashi mumkin. Ikkinchisi - nutqiy ta’sir: so‘z haqorat, tanbeh yoki qoralash aktida kelganda ma’nodagi salbiy baho tinglovchiga qaratilgan ta’sirga aylanadi. *Miskin* esa azob

[7] Universitat de Barcelona. Diccionario del castellano del siglo XV en la Corona de Aragón (DICCA-XV), «adalid» (1418, 1499): https://ghcl.ub.edu/diccaxv/dictionary/ViewLema/609 (murojaat: 04.11.2026).

[8] O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati, «kambag‘al» sinonimik qatori, 170-bet: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10000014/WD9XMk2ViSpqnTM.pdf ; O‘TIL (2022), «miskin» maqolasi.

[9] RAE–ASALE, ITL, «mezquino»: https://dle.rae.es/mezquino (murojaat: 04.11.2026); «pobre/desdichado»ga oid qadimgi qatlam va faol baholovchi semalar farqlanadi.

[10]. Martínez Ezquerro A. “Ofensas verbales en teatro del siglo XVI” // Estudios Filológicos. 2019. № 63. P. 279–304. DOI: 10.4067/S0071-17132019000100279. 4.3.2-bo‘lim (“Mezquino”): https://www.scielo.cl/scielo.php?pid=S0071-17132019000100279&script=sci_arttext .

chekayotgan kishi haqidagi hamdardlikni uyg‘otishi mumkin. Lekin uni barcha o‘zbekcha vaziyatlarda mutlaqo ijobiy so‘z deb e’lon qilish ham xato.

Aynan shu yerda pragmatik tarjima mezoni ochiladi: *un comportamiento mezquino* birikmasini “miskin xulq” deb o‘girish tabiiy emas; “pastkash xatti-harakat” yoki “xasisona munosabat” mazmunni yaxshiroq saqlashi mumkin. Lug‘aviy qoldiq sifatida umumiylik bor, kommunikativ bahoda esa keskin nomuvofiqlik kuzatiladi. Faqat sinxron farqdan kelib chiqib, baholovchi o‘zgarish o‘zbek tilida yuz bermagan yoki u faqat ispan tilida paydo bo‘lgan deb aytib bo‘lmaydi: bu diaxron tarix uchun alohida korpus kerak.

Harakat–alharaca: faoliyat nomi va bo‘rttirilgan hissiy ko‘rinish.

O‘zbekcha *harakat*ning semantik kengligi diqqatga sazovor: u jismoniy siljish, urinish, mehnat, ijtimoiy oqim, xatti-harakat va hatto falsafiy rivojlanish kategoriyasini bildiradi. Izoh.uzdagi “O‘tgan kunlar”dan keltirilgan misollarda ham harakat biror ishni amalga oshirishga urinish sifatida ishlatiladi. Mazkur qatlamda so‘z o‘z-o‘zidan “ortiqchalik” yoki “sun’iy shovqin” bahosini bermaydi.[11]

Ispancha *alharaca* esa bugungi ITLda kichik sababga nisbatan hissiyotning haddan ortiq namoyon etilishini bildiradi. Lug‘at “sin grandes alharacas” kabi namuna keltiradi: bu ifoda “katta shovqin-suronsiz, ortiqcha dabdabasiz” degan nutqiy bahoni beradi. Demak, tarixan arabcha *ḥarakah* bilan aloqadorlik saqlansa ham, *alharaca*ning faol semantik yadrosi fizik siljish emas, uning ijtimoiy idrok etilgan ekspressiv ko‘rinishidir.[12]

L. de Eguílaz y Yanguasning 1886-yildagi “Glosario etimológico de las palabras españolas de origen oriental” asarida *alharaca* “hissiyotning keskin harakati yoki namoyishi” mazmunida beriladi. Shunday qilib, ekspressiv ma’no XIX asr leksikografiyasida ham bor. Biroq Eguílazdagi ikkinchi, bezakka tegishli bir xil shaklli maqolani ayni semantik tarixga qo‘shib yuborish mumkin emas: u alohida etimologik talqinga ega bo‘lishi mumkin.[13]

Bu misoldagi farqni faqat “ma’no torayishi” deb belgilash yetarli emas. Ispancha shaklda baholovchi munosabat - namoyishning haddan tashqariligi - nomning asosiy tarkibiga kiradi. O‘zbekcha *harakat* esa muayyan vaziyatga qarab ijobiy, salbiy yoki neytral bo‘lishi mumkin. “U harakat qildi” jumlasi bilan *hizo*

11. Izoh.uz, “harakat” maqolasi, 1–11-ma’nolar va A. Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asaridan lug‘atga kiritilgan namunalari: https://izoh.uz/word/harakat .

12. RAE–ASALE, ITL, “alharaca”: https://dle.rae.es/alharaca (murojaat: 04.11.2026). Lug‘atning o‘zida so‘z ko‘proq ko‘plikda ishlatilishi ham qayd etilgan.

13. Eguílaz y Yanguas L. de. Glosario etimológico de las palabras españolas de origen oriental. Granada, 1886. “Alharaca”ning ikki alohida lug‘at maqolasi: https://es.wikisource.org/wiki/Glosario_etimol%C3%B3gico_de_las_palabras_espa%C3%B1olas_de_origen_oriental/Al .

alharacas ifodasi o‘zaro ekvivalent emas: ikkinchi shakl voqeaga subyektiv munosabatni ham bildiradi.

Semantik natijalarni aniq mezonlar asosida tasniflash.

Qiyos natijalarini uch yo‘nalishda birlashtirish qulay: etimologik umumiylik mavjudligi, hozirgi semantik markaz va uning isbotlangan tarixiy ko‘rinishlari.

1-jadval.

Arabizmlarning o‘zbek va ispan tillaridagi semantik farqlanishi.

Juftlik	O‘zbekcha markaz	Ispancha markaz	Farq mexanizmi	Tarixiy tayanch
dalil–adalid	asos, isbot, fakt	yetakchi, himoyachi	R: fakt ↔ shaxs	T1: Partidas, DICCA-XV; S: ITL/O‘TIL
miskin–mezquino	nochorlik, mung	xasislik, salbiy baho	A: achinish ↔ qoralash	T2: Martínez Ezquerro; S: ITL/O‘TIL
harakat–alharaca	faoliyat, urinish	ortiqcha hissiy namoyish	P: neytral harakat ↔ ekspressiv munosabat	T2: Eguílaz (1886); S: ITL/O‘TIL

Jadvaldagi “tarixiy tayanch” so‘zning qanday ma’noda muayyan vaqtda ishlatilganini ko‘rsatadi.

Tarjima va ikki tilli lug‘atlar uchun tatbiq.

Tarjimon yoki lug‘at tuzuvchi uchun birinchi tekshiruv - manba so‘zning hozirgi kommunikativ vazifasini belgilashdir. Denotativ almashtirish kerakmi, baholovchi bo‘yoqni saqlashmi yoki to‘liq tavsifiy tarjimami? Agar buni faqat tashqi tovush o‘xshashligiga qarab hal qilsak, tarixiy jihatdan tanish leksema matn ma’nosini aynan buzishi mumkin.

Misol tariqasida, un adalid de la ciencia – “ilm-fan jonkuyari”; una crítica mezquina – “pastkashona tanqid”; sin hacer alharacas – “ortiqcha shovqin-suronsiz” tarzida berilishi mumkin.

Leksikografik tavsifda har bir juftlik uchun to‘rtta qatlam alohida berilishi maqsadga muvofiq: birinchi - etimologik birlik va vositachi zanjir, ikkinchi - asosiy zamonaviy ma’no, uchunchi - tarixiy yoki chekka ma’no, to‘rtinchi - kontekstga bog‘liq tarjima va uslubiy ogohlantirish. Masalan, *mezquino* maqolasida *xasislik* bilan qadimgi *muhtojlik* ma’nosi bir-biridan ajratilmasa, foydalanuvchi tarixiy bog‘liqlikni zamonaviy tarjima tengligi deb xato tushunishi mumkin.

Muhokama: tadqiqot hissasi va cheklovlari.

Mazkur ishning amaliy yangiligi leksemalarning arabcha kelib chiqishini qayta aniqlashda emas. U uch xil farqlanishning dalil maqomini bir sxemaga keltiradi: *dalil–adalid*da XIII–XV asrlardagi harbiy-shaxs referenti dastlabki matnlar orqali; *miskin–mezquino*da tarixiy aksiologik rivojlanish maxsus ilmiy tadqiqot orqali; *harakat–alharacada* XIX asr lug‘aviy tavsifi orqali ko‘rsatiladi. Demak, bir xil ko‘rinadigan etimologik tafovutlar bir xil darajada tarixiy isbotlangan emas.

XULOSA

Birinchidan, umumiy arabcha kelib chiqishga ega so‘zlar ispan va o‘zbek tillaridagi zamonaviy leksemalarning sinonim bo‘lishini kafolatlamaydi. *Dalil–adalid* juftligida mantiqiy asos va inson referenti o‘rtasida aniq denotativ uzilish, *miskin–mezquino*da ehtiyoj holati bilan salbiy axloqiy baho orasida aksiologik farq, *harakat–alharaca*da esa neytral faoliyat bilan bo‘rttirilgan hissiy namoyish orasida pragmatik farqlanish kuzatildi.

Ikkinchidan, diaxron semantik tarixni hozirgi lug‘at farqi bilan almashtirish mumkin emas. Alfonso X matni va XV asr hujjatlari *adalid*ning eski ijtimoiy vazifasini; Martínez Ezquerro tadqiqoti *mezquino*ning baholovchi qatlamini; Eguílaz lug‘ati *alharaca*ning tarixiy ekspressiv talqinini yoritadi. Ular sabab, davr va vositachi shakllar zanjirini to‘liq tiklab beradi, degan da’vo chiqarilmadi.

Uchinchidan, ikki tilli lug‘at va tarjimada “etimologik qarindoshlik” bilan “semantik muqobillik” mustaqil belgilanadi. Qabul qiluvchi tilning ma’no markazi, konnotatsiyasi va matn vazifasini ajratish shunchaki nazariy ehtiyotkorlik emas, bu noaniq tarjimani oldini oladigan aniq metodik talabdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Alfonso X. (n.d.). “Las Siete Partidas” (Segunda Partida, título XXII, ley I). Boletín Oficial del Estado.
2. Baxronova, D. K. (2021). “Diccionario español-uzbeko (Ispancha-o‘zbekcha lug‘at)”. Turon-Iqbol.
3. Burkhonov, U. F. (2024). “Similitudes y diferencias en los arabismos de las lenguas española y uzbeka” [Doctoral dissertation, Universidad de Castilla-La Mancha]. Repositorio Institucional RUIdeRA.
4. Burxonov, U. F. (2019). Ispan tilidagi arabizmlarning semantik va etimologik tadqiqi. In “Zamonaviy tilshunoslik va lingvodidaktikaning kommunikativ aspektlar”. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (pp. 61–62).

5. Eguílaz y Yanguas, L. de. (1886). “Glosario etimológico de las palabras españolas de origen oriental”. Imprenta de La Lealtad.
6. Izoh.uz. (n.d.). “O‘zbek tilining izohli raqamli so‘zligi” (“Dalil”, “harakat” lug‘at maqolalari). Retrieved November 4, 2026, from https://izoh.uz/
7. Madvaliyev, A., & Xudoyberganova, D. (Eds.). (2022). “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (6 jild). G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
8. Martínez Ezquerro, A. (2019). Ofensas verbales en teatro del siglo XVI. “Estudios Filológicos, 63”, 279–304. https://doi.org/10.4067/S0071-17132019000100279
9. “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”. (p. 170, “Kambag‘al” sinonimik qatori).
10. Real Academia Española. “Banco de datos: Corpus Diacrónico del Español (CORDE) y Corpus del Español del Siglo XXI (CORPES XXI)”. https://www.rae.es/banco-de-datos
11. Real Academia Española, & Asociación de Academias de la Lengua Española. (2026). “Diccionario de la lengua española” (24.ª ed.). Retrieved November 4, 2026, from https://dle.rae.es/
12. Universitat de Barcelona. “Diccionario del castellano del siglo XV en la Corona de Aragón (DICCA-XV): Adalid”. https://ghcl.ub.edu/diccaxv/dictionary/ViewLema/609